

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK – QURILISH INSTITUTI**

Qo‘lyozma huquqida

UO‘K: 338.32.053.4

BAYBOBOYEVA FIRUZA NABIJONOVNA

**KICHIK BIZNES KORXONALARIDA IQTISODIY
XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.15–Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) ILMIY
DARAJASINI OLIISH UCHUN YOZILGAN
DISSERTATSIYA**

Ilmiy maslahatchi: Sh.Z.Muxitdinov

iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

TOSHKENT

MUNDARIJA

KIRISH	4
I KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARIDA IQTISODIY BOB. XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
1.1-§. Kichik ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari	14
1.2-§. Kichik ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari	27
1.3-§. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyat yo'nalishlarini tahlil qilish xususiyatlari	37
Birinchi bob bo'yicha xulosalar	48
II KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARIDA IQTISODIY BOB. XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	50
2.1-§. Tashxislash vositasi sifatida korxonaning iqtisodiy xavfsizligini baholash usullari	50
2.2-§. Kichik biznes sub'yektlarida iqtisodiy xavfsizligi darajasini baholash metodologiyasi	61
2.3-§. Kichik biznes sub'yektlari iqtisodiy xavfsizligini baholash uslubiyoti	72
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	81
III FARG'ONA VODIYSIDAGI YENGIL SANOAT BOB. KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK DARAJASINI BAHOLASH TAHLILI	84
3.1-§. "IMRON TEXTILE GROUP" MChJ, "XO'JA OBOD GRAND TEKSTIL" MChJ va "BOXODIR LOG'ON TEXTILE" MChJ korxonalarining iqtisodiy xavfsizlik darajasining taxlili	84

3.2-§.	Namangan, Andijon va Farg‘ona viloyatlarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub’yektlarining iqtisodiy xavfsizlik darajasi va taxlilij natijalar	94
3.3-§.	Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’yektlarining iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik baholash	106
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar	124
IV	KICHIK BIZNES SUB‘YEKTLARIDA IQTISODIY	126
BOB.	XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHNING YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLI	
4.1-§.	Kichik biznes sub’yektlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash kompleksi	126
4.2-§.	Kichik biznes sub’yektlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning samaradorligini oshirish strategiyasi	146
4.3-§.	Farg‘ona vodiysida kichik biznesni 2030 yilgacha rivojlanishining prognoz ssenariylari	162
	To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosalar	175
	XULOSA	177
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	180
	ILOVALAR	189

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar, jumladan, kichik biznes korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash masalalari tobora dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Kichik biznes faoliyati sohadagi o‘zgarishlar ta‘sirida iqtisodiy tahlikaning oshib borishi natijasida xavfsizlik darajasining pasayib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, turli darajadagi iqtisodiy tebranishlar, favqulodda va inqiroz holatlari kichik biznes sub‘yektlari faoliyat barqarorligiga ko‘proq xavf soladi. Amerika bankrotlik instituti ma‘lumotlariga ko‘ra “dunyoda mamlakatlarda kichik chakana savdo korxonalar yiliga 60%, past darajadagi moliyaviy boshqaruv tufayli 25%, muvaffaqiyatsizlik tufayli 11%, kutilmagan raqobat tufayli esa 15% kichik biznes sub‘yektlari bankrotlikka uchramoqdalar”¹. Shunga ko‘ra, kichik biznes sub‘yektlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash bugungi kunning eng muhim muammolaridan biri sifatida qaraladi.

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va muassasalari tomonidan tadbirkorlik sub‘yektlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yengil sanoatga ixtisoslashgan kichik biznes sub‘yektlari faoliyati barqarorligini ta‘minlovchi omillar hamda iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi tizimlarni aniqlash, texnik-texnologik, mehnat munosabatlari salohiyatidan samarali foydalanish, iqtisodiyotning tarkibiy deformatsiyasi, korxonalar innovatsion faolligi, jamiyatdagi mulkiy tabaqalanish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash kabi jarayonlarni tartibga solishning iqtisodiy xavfsizlikka ta‘sirini baholash kabi masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda kichik biznes faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish yo‘nalishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

¹<https://gitnux.org/small-business-bankruptcies-statistics/>.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish”² vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish kichik biznesni rivojlantirishning hududiy dasturlarida tadbirkorlik faoliyatiga tahdidlarni oldindan baholash orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, tadbirkorlik sub’yektlari faoliyati iqtisodiy barqarorligiga ta’sir ko’rsatuvchi moliyaviy tavsifdagi xatarlarning oldini olishga yo’naltirilgan moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir etuvchi tahdidlarni alohida guruhlariga tasniflash orqali ularning oldini olish jarayonlari samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 Strategiyasi to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2021 yil 5 oktabrdagi PF-4848-son “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021 yil 7 sentabrdagi PF-6307-son “Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik sub’yektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021 yil 21 apreldagi PQ-5087-son “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 noyabrdagi “Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4525-son Qarori. - <https://lex.uz/docs/4602230>

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Kichik korxonalarda iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va nufuzli xalqaro moliya-kredit tashkilotlari, jumladan, Harvard University, Duke University, World Bank, IMF, New York University, University of Chicago (AQSh), Oxford University, University of Manchester, University of Leeds, London school of Economics (Buyuk Britaniya), Investitsiya kafolatlari bo'yicha ko'p tomonlama agentlik, Baholovchilar assosiasiyasining Yevropa guruhi, Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti, Rossiyaning Ilmiy tadqiqot moliya instituti (NIFI), Janubiy Ural davlat universiteti, Rossiya Moliya universiteti hamda MDU moliya fakulteti (Rossiya) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Dunyoda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash asosida iqtisodiy xavfsizlik masalalari bo'yicha quyidagi ilmiy natijalar olingan, jumladan: moliyaviy risklarni baholash bo'yicha uslubiyot ishlab chiqilgan (Mc Kinsey & Co); korxonalarda axborot xavfsizligini ta'minlash asosida uning barqarorligini ta'minlash tavsiya etilgan (HOLT Value Associates); moliyaviy resurslarini samarali boshqarish asosida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, BS 31100:2008 Britaniya standarti ishlab chiqilgan (Ernst & Young, KPMG, Deloitte).

Jahonda korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy-metodologik, uslubiy va iqtisodiy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha qator ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan: iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy barqarorlik, likvidlilik, rentabellikni oshirish va inqirozga qarshi kurashishni boshqarish, yengil sanoatga ixtisoslashgan kichik biznes sub'yektlari faoliyati barqarorligini ta'minlovchi omillar hamda iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi tizimlarni aniqlash, texnik-texnologik, mehnat munosabatlari salohiyatidan samarali foydalanish, iqtisodiyotning tarkibiy

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi www.worldbank.org; www.worldbankgroup.org; <http://www.imf.org>; <http://www.miga.org>; <https://unecon.ru>; <https://hsem.susu.ru/es>; <http://www.fa.ru>; www.mgu.ru; www.ey.com; www.deloitte.com; <https://tfi.uz/en>; <http://tsue.uz>; www.nammti.uz; <https://ifmr.uz> va boshqa manbaalar asosida tayyorlangan..

Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlarda asosan korxonalarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning turli jihatlarining nazariy asoslari tadqiq etilgan. Biroq, tarmoq va sohalar xususiyatlaridan kelib chiqib, kichik ishlab chiqarish korxonasi faoliyatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy xavfsizlikning nazariy-uslubiy asoslari va uni takomillashtirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan deb hisoblash mumkin.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Namangan muhandislik-qurilish institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lib kichik biznesga ixtisoslashgan yengil sanoat korxonalarida faoliyatida iqtisodiy xavfsizlik metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kichik ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yengil sanoat korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etish;

ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning funksional komponentlarini tadqiq etish;

yengil sanoat korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish;

kichik ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uslubiyotini asoslash;

yengil sanoatga ixtisoslashgan kichik ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning takomillashtirilgan metodologiyasini ishlab chiqish;

Farg'ona vodiysi yengil sanoatga ixtisoslashtirilgan yengil sanoat korxonalarida faoliyatini ishlab chiqilgan metodologiya asosida iqtisodiy xavfsizlik darajasini aniqlash va ekonometrik modellashtirish;

kichik biznes sub'yektlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning 2030 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti bo'lib kichik biznes shaklidagi Farg'ona vodiysi bo'yicha yengil sanoatga ixtisoslashgan korxonalar faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib kichik biznes sub'yektlari faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy guruhlash, qiyosiy tahlil qilish va tanlama kuzatish, statistik tahlil, prognozlash va boshqa usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra “korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash” tushunchasining iqtisodiy mazmuni korxonaning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, barqaror ish faoliyatini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish, raqobatbardoshlikni saqlab qolish, tashqi va ichki tahdidlarga qarshi samarali choralar ko'rish jarayonlarining moliyaviy, kadrlar, axborot, texnologik munosabatlar yig'indisi bilan uzviy bog'liqligi jihatidan takomillashtirilgan;

to'qimachilik korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash metodologiyasi moliyaviy (Mol), kadrlar (Kr), texnik-texnologik (Tex-Tn), ishlab chiqarish va sotish (IshSot) omillari ta'sirini umumlashtiruvchi iqtisodiy xavfsizlik integral darajasining “yuqori daraja pozitiv” ($45 <$), “yuqori daraja barqaror” ($32 < 44$), “ijobiy daraja” ($20 < 33$), “past daraja” ($9 < 21$), “kritik daraja” ($5 >$) chegaraviy qiymatlari asosida takomillashtirilgan;

yengil sanoat korxonalarida iqtisodiy xavfsizlik darajalarini baholashning iqtisodiy barqarorlik holati “xavfsiz” ($1,0 - 0,8$), “yuqori” ($0,79 - 0,6$), “o'rtachadan yuqori” ($0,59 - 0,4$), “o'rtacha” ($0,39 - 0,2$), “inqirozli” ($0,19 - 0,0$) mezon chegaralarida xavfsizlikni minimallashtirish shartlarini qo'llash taklifi asoslangan;

Farg'ona vodiysidagi kichik biznes korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni baholash, xavflarni kamaytirish, rentabellikni oshirish, korxonani diversifikasiyalash jarayonlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash asosida 2030 yilga qadar rivojlanishining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

O‘zbekistonda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning tarkibiy o‘zgarishlarga ta‘sirini inobatga olgan holda polinomal trendi asosida 2030 yilgacha rivojlanishining prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kichik biznes sub‘yektlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etish asosida ularning soha faoliyatida iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashning namoyon bo‘lish xususiyatlari aniqlangan;

iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni o‘rnini baholash, faoliyatini tahlil qilish va moliyaviy xavfsizligini ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirishda mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

to‘qimachilik korxonalarida iqtisodiy xavfsizlik va uning salbiy ta‘sirini oldini olishning uzviyligini ta‘minlashning takomillashtirilgan metodologiyasi ishlab chiqilgan;

Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub‘yektlarining iqtisodiy xavfsizligiga ta‘sir etuvchi omillar ekonometrik baholangan;

“IMRON TEXTILE GROUP”, “XO‘JA OBOD GRAND TEKSTIL”, “BOXODIR LOG‘ON TEXTILE” korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning takomillashtirilgan tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, iqtisodiy jihatdan asoslanganligi, statistik ma‘lumotlarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlariga hamda boshqa rasman e‘lon qilingan amaliy ma‘lumotlar tahliliga asoslanganligi va tegishli xulosa, takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy qoida va xulosalardan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashning metodologik tuzilmasi hamda uning mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish,

zamonaviy uslubiy yondashuvlarni qo'llashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi taklif va tavsiyalardan mamlakatda kichik biznesga ixtisoslashgan yengil sanoat korxonalarini faoliyatida iqtisodiy xavfsizlik metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan tarmoq va hududiy dasturlarni shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning nazariy va statistik materiallardan oliy ta'lim muassasalarida "Iqtisodiyot nazariyasi", "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish", "Moliyaviy xavfsizlik" hamda "Iqtisodiy xavfsizlik" fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirish hamda o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kichik ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash" tushunchasining iqtisodiy mazmunini korxonaning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, barqaror ish faoliyatini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish, raqobatbardoshlikni saqlab qolish, tashqi va ichki tahdidlarga qarshi samarali choralar ko'rish jarayonlarining moliyaviy, kadrlar, axborot, texnologik munosabatlar yig'indisi bilan uzviy bog'liqligi jihatidan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Экономика предприятия" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 22 dekabrda 537-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini hamda kichik biznesni rivojlantirishda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan (O'zbekiston savdo-sanoat palatasining 2024 yil 22-noyabrda 06-10-33-17008-sonli ma'lumotnomasi);

to'qimachilik korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash metodologiyasi moliyaviy (Mol), kadrlar (Kr), texnik-texnologik (Tex-Tn), ishlab chiqarish va sotish (IshSot) omillari ta'sirini umumlashtiruvchi iqtisodiy xavfsizlik integral darajasining "yuqori daraja pozitiv" ($45 <$), "yuqori daraja barqaror" ($32 < 44$), "ijobiy daraja" ($20 < 33$), "past daraja" ($9 < 21$), "kritik daraja" ($5 >$) chegaraviy qiymatlari asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston savdo-sanoat palatasi tomonidan "Hududlardagi yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturlari"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston savdo-sanoat palatasining 2024 yil 22-noyabrdagi 06-10-33-17008-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifdan foydalanish natijasida Farg'ona vodiysidagi yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va rivojlantirishning optimallashtirilgan boshqaruv uslubiyotini qo'llash asosida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash imkonini bergan;

yengil sanoat korxonalarida iqtisodiy xavfsizlik darajalarini baholashning iqtisodiy barqarorlik holati "xavfsiz" ($1,0 - 0,8$), "yuqori" ($0,79 - 0,6$), "o'rtachadan yuqori" ($0,59 - 0,4$), "o'rtacha" ($0,39 - 0,2$), "inqirozli" ($0,19 - 0,0$) mezon chegaralarida xavfsizlikni minimallashtirish shartlarini qo'llash taklifi O'zbekiston savdo-sanoat palatasi tomonidan "Hududlardagi yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturlari"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston savdo-sanoat palatasining 2024 yil 22-noyabrdagi 06-10-33-17008-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy qilish natijasida Farg'ona vodiysida yengil sanoatga ixtisoslashtirilgan korxonalarda barqaror rivojlanish darajalarni baholash imkoniyatini bergan;

Farg'ona vodiysidagi kichik biznes korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni baholash, xavflarni kamaytirish, rentabellikni oshirish, korxonani diversifikasiyalash jarayonlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash asosida 2030 yilga qadar rivojlanishining prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston savdo-sanoat palatasi tomonidan "Hududlardagi yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturlari"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston savdo-sanoat palatasining 2024 yil 22-noyabrdagi 06-10-33-17008-sonli

ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish orqali yengil sanoat korxonalarida zarar miqdorini 14 foizgacha pasaytirish imkonini bergan;

O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning tarkibiy o'zgarishlarga ta'sirini inobatga olgan holda polinomal trendi asosida 2030 yilgacha rivojlanishining prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston savdo-sanoat palatasi tomonidan "Yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturlari"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston savdo-sanoat palatasining 2024 yil 22-noyabrdagi 06-10-33-17008-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tarkibidagi kichik biznes sub'yektlarini 2030 yilga qadar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy jurnallarda 10 ta, xorijiy jurnallarda 6 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Tadqiqot ishining tuzilishi. Tadqiqot ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, 193 betni tashkil etadi.

I BOB. KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Kichik ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari

Kichik biznes sohasi iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash, bandlik va har qanday sharoitlarga moslashuvchanligi tufayli drayver soha hisoblanadi.

Olimlardan M.R. Boltaboev va boshqalarning fikricha "Kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar davlatga bog'liq bo'lmagan holda ya'ni katta kapital mablag'larsiz o'zlari ish joylarini joriy etishlari hozirgi davrda bizda vaqtinchalik mavjud bo'lgan tovarlar tanqisligini kamaytirishlari va hattoki bu tanqislikni butunlay yo'qotishlari mumkin"⁶ degan ta'rifni keltirib o'tganlar.

Bugungi kunda tadbirkorlik nazariyasini rivojlantirishning to'rtta bosqichi mavjud. XVIII asrdayoq vujudga kelgan birinchi bosqichda tadbirkorlik xavf xatarini o'ziga olish boshqacha qilib aytganda tavakkalchilik bilan bog'liq faoliyat ekanligi qayd etilgan⁷.

Garchi tadbirkorlik atamasi va faoliyati vujudga kelarkan u xavf-xatarga yaqin faoliyat deb qayt etilgani sababli shunday xulosaga kelish mumkinki, demak iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash asosida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini ta'minlash mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlik bu iqtisodiy kategoriyadir. Chunki u iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sishi ta'minlangan, ijtimoiy ehtiyojlarni optimal darajada qondirilgan, ratsional boshqarishni amalga oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda

⁶ M.P. Болтабоев, М.С. Қосимова, Ш.Ж. Эргашходжаева, Б.К. Ғойибназаров, А.Н. Самадов, Р. Ходжаев. Кичик бизнес ва тadbirkorlik. Ўқув қўлланма. -Т.: 2010, Б-35

⁷ M.P. Болтабоев, М.С. Қосимова, Ш.Ж. Эргашходжаева, Б.К. Ғойибназаров, А.Н. Самадов, Р. Ходжаев. Кичик бизнес ва тadbirkorlik. Ўқув қўлланма. -Т.: 2010, Б-8

iqтisodiy manfaatlarining himoyalangandagi holatini ifodalaydi ⁸, deb ta’rif keltirgan. Ushbu nazariy qarash orqali muallif iqtisodiy xavfsizlik mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini qondiruvchi omil ekanligini nazarda tutmoqda.

Iqtisodchi olim I.S. Xotamov “Iqtisodiy xavfsizlik davlat milliy xavfsizligini ta’min etuvchi asosiy bo‘g‘inlaridan biri, mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini kafolatli ta’minlash yo‘llari, vositalari va usullariga asoslanuvchi qarashlar yig‘indisidan iborat. Kontseptual ko‘rinishda u davlat iqtisodiy potentsiali holatidan kelib chiqadigan iqtisodiy xavfning asosiy omillari tahliliga asoslanadi”⁹ deb ta’rif keltirgan. Ushbu nazariy qarash orqali muallif iqtisodiy xavfsizlik mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini qondiruvchi omil ekanligini nazarda tutmoqda.

Yana bir mamlakatimiz iqtisodchi olimi H.P. Abulqosimov “Xavfsizlik ko‘p qirrali bo‘lib, u butun insoniyat, davlat yoki iqtisodiy tizimning normal faoliyat yuritishi, rivojlanishi uchun noxush, salbiy, zararli ta’sirlardan, xavf-xatarlardan saqlanish, himoyalaniш holatini ifodalaydi. Xavfsizlik umumiy tarzda ziyon yetkazish uchun potensial sharoitlarning yo‘qligi, saqlanishlik, himoyalaniш va ishonchlilikni anglatadi”¹⁰ deya ta’rif keltirib, “Korxonalarining (firma) iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilganda ularni ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, moliyaviy, savdo-tijorat hamda notijorat va jamoatchilik tashkilotlari sifatida faoliyat yuritishi nuqtai nazaridan turkumlash maqsadga muvofiq. Korxonaning (firma) ixtisosligiga ko‘ra xavfsizligini ta’minlash xususiyatlari ham turlicha bo‘lishi tabiiydir”¹¹ degan fikrni ilgari surgan.

Mamlakatimiz olimlaridan professor I.B. Israilov o‘z ilmiy qarashlarida “Iqtisodiy xavfsizlik – milliy iqtisodiyotning mustaqil rivojlanish hamda

⁸ И.С. Хотамов. “Иқтисодий хавфсизлик ва рақамли иқтисодиёт” мақола. “Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни шакллантиришда менежмент ва корпоратив бошқарувнинг аҳамияти” халқаро илмий-амалий конференция. –Т.: “ТДИУ” 2020 й. 376-б.

⁹ И.С. Хотамов. “Иқтисодий хавфсизлик ва рақамли иқтисодиёт” мақола. “Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни шакллантиришда менежмент ва корпоратив бошқарувнинг аҳамияти” халқаро илмий-амалий конференция. –Т.: “ТДИУ” 2020 й. 376-б.

¹⁰ Ҳ.П. Абулқосимов “Иқтисодий хавфсизлик” ўқув қўлланма. –Т.: “Академия”, 2006 й. 7-б.

¹¹ Ҳ.П. Абулқосимов “Иқтисодий хавфсизлик” ўқув қўлланма. –Т.: “Академия”, 2006 й. 29,30-б.

barqarorligi, maromiyligi, doimiy yangilanish imkoniyatini beradigan omillar hamda shart-sharoitlarni ta'minlanganligidir”¹² deya ta'rif keltirib o'tgan.

Shu tariqa ko'plab mamlakatimiz olimlari, tadqiqotchilar “Iqtisodiy xavfsizlik” va tadbirkorlik sub'yektlarida ushbu atamalarga o'zlarining ilmiy va nazariy qarashlari hamda mualliflik ta'riflarida iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lishi xaqida fikr yuritib u o'zining ob'yektlari va sub'yektlari nuqtai nazaridan turli shakllarda namoyon bo'lishini ta'kidlagan.

Professor T.E. Kochergina, “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasiga iqtisodiy tizimning o'zini-o'zi o'zgarmas hajmlarda, doimiy miqdoriy va sifat jihatdan takror ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan holati”¹³ deb ta'rif bermoqda. Mazkur ta'rifda olim iqtisodiy tizimda o'zgarmas hajmlarda miqdor va sifat jihatdan takror ishlab chiqarishga ega bo'lgan sub'yektlar iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlay olish imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlamoqda.

D.V. Gordienko, “Iqtisodiy xavfsizlik” milliy xo'jalikning ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, bu holat jamiyatning izchil rivojlanishini, ichki va tashqi salbiy omillar ta'sir ko'rsatayotgan sharoitda ham iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi”¹⁴ deya ta'kidlab o'tgan.

O.A. Ryazanova, o'z tadqiqot ishida “Kichik biznes sub'yektlarining iqtisodiy xavfsizligi bu kichik korxonalar uchun ichki va tashqi tomondan ta'sir etuvchi tahdid omillarining salbiy ta'siri sharoitida rivojlanish salohiyati, moliyaviy barqarorlik darajasini ta'minlash imkoniyatlarining mavjudligi bilan tavsiflanadi”¹⁵ deya ta'rif keltirib o'tgan.

O.I. Vasilchuk o'zining ilmiy nazariyasida “Kichik va o'rta biznes sub'yektlarida iqtisodiy xavfsizlik – bu uzoq muddatli istiqbolda tadbirkorlikni

¹² И.Б. Исраилов. “Иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг долзарб масалалари” мақола. “Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари” республика илмий-амалий конференция. – Т.: “ТДИУ” ва “ЎРБПА” 2019 й. 68-б.

¹³Кочергина Т.Е. Экономическая безопасность. - Ростов-н/Д: Феникс, 2007. -С 6.

¹⁴Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб-метод пособие. -М :финансы и статистика ИНФРА-М. 2009. –С.8

¹⁵О. А. Рязанова. “Развитие мониторинга факторов экономической безопасности субъектов малого бизнеса на основе риск-ориентированного подхода” дисс. –К.: 2018г. С-17.

barqaror rivojlanishini ta'minlovchi me'yoriy va huquqiy shart-sharoitlar kombinatsiyasidir”¹⁶ degan yondashuvni ilgari surgan. Muallif ushbu yondashuvda kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarida iqtisodiy xavfsizlikka iqtisodiy omillardan tashqari me'yoriy-xuquqiy munosabatlarning ta'sir etishini nazarda tutmoqda.

Akademik L.I. Abalkin esa, “Iqtisodiy xavfsizlikning eng muhim tarkibiy elementlari bu iqtisodiy mustaqillik, barqarorlik va milliy iqtisodiyotning barqarorligi, shuningdek o'zini-o'zi rivojlantirish va taraqqiyot qobiliyatidir”¹⁷ deya ta'rif keltirgan.

Tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki ilmiy adabiyotlarda «Iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasining aniq mezoni keltirilmagan, mualliflar tomonidan turlicha talqinlar berilgan.

Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiy xavfsizlik haqida aniq tushuncha yoki ta'rif keltirilmagan bo'lsada hududning iqtisodiy xavfsizligi muammolariga bevosita yoki bilvosita bog'lanishi mumkin bo'lgan qoidalar mavjud.

Y.V. Latov asarida va boshqa bir qator nashrlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy nazariyotchilar hududlar, ob'yektlar va sub'yektlarning iqtisodiy xavfsizligini himoya qilish tushunchalari sifatida tushunish uchun uchta asosiy yondashuvni ishlab chiqdilar: kameralist, keynscha va institutsional tushunchalar. Biroq, bu ro'yxatni iqtisodiy tafakkurning rivojlanish ketma-ketligini ochib beruvchi yana bir qancha nazariyalar bilan to'ldirish, shu jumladan ularning asosiy qoidalarini iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan talqin qilish mumkin deb hisoblaymiz.

Ilmiy adabiyotlarda “korxonaning iqtisodiy xavfsizligi” tushunchasini talqin qilish bo'yicha yagona fikr mavjud emas. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligining muhim xususiyatlarini muhokama qilishda bir nechta yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

¹⁶ Васильчук, О.И. Процедуры аудита деятельности предприятий малого и среднего бизнеса, направленные на обеспечение экономической безопасности / О.И. Васильчук // Инновационное развитие экономики. – 2011. – № 3. – С. 17

¹⁷Абалкин Л.И. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение [Текст] / Лев Абалкин // Вопросы экономики. – 1994. - №12. – С. 10-29.

Birinchi guruh mualliflari korxonaning iqtisodiy xavfsizligini resurslar yoki korxonalar salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlovchi davlat sifatida izohlaydilar. Ushbu yondashuv tarafdorlari korxonaning iqtisodiy xavfsizligini aniqlashda tahdid tushunchasidan foydalanmaslikka harakat qiladilar, maqsadga erishish, korxonalar faoliyatining iqtisodiy tushunchalariga e'tibor qaratadilar. Resurs-funksional yondashuvga A.A. Odintsov¹⁸, A.Y. Yevseeva, S.V. Kotik¹⁹, E.A. Oleynikov²⁰, N.V. Matveev²¹, A.A. Bospalko²², V. A. Bogomolov²³ kabi olimlar amal qiladi.

Ikkinchi guruh mualliflari, masalan, M.I. Korolev²⁴, A.G. Shavaev²⁵, V.I. Yarochkin²⁶ korxonaning iqtisodiy xavfsizligini iqtisodiy jinoyatlardan himoyalash deb belgilaydi. Ko'pincha korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash qarama-qarshilik, turli xil iqtisodiy jinoyatlardan (o'g'irlik, firibgarlik, qalbakilashtirish, sanoat josusligi va boshqalar) himoya qilish bilan bog'liq. Shubhasiz, bu tahdidlar juda muhim va ularni doimiy ravishda tahlil qilish va hisobga olish kerak, ammo korxonaning iqtisodiy xavfsizligini faqat shu bilan kamaytirish mumkin emas.

A.V. Kozachenko, V.P. Ponomarev, A.N. Lyashenko²⁷ korxonaning iqtisodiy xavfsizligini raqobatdosh ustunliklarning mavjudligi sifatida belgilaydi. Ushbu yondashuv tarafdorlarining fikricha, korxonaning moddiy, moliyaviy,

¹⁸ Одинцов А.А. Экономическая и информационная безопасность предпринимательства [Текст] / А.А. Одинцов. - М.: Изд-во Академия, 2008. – 336 с.

¹⁹ Евсева А.Ю. Экономическая безопасность и ее значение для предпринимательской деятельности [Текст] / А.Ю. Евсева, С.В. Котик // Налоговое планирование. - 2012. - № 3. - С. 46 - 48.

²⁰ Экономическая и национальная безопасность : учебник для студентов вузов [Текст] / Е. А. Олейников [и др.]; отв. ред. Е. А. Олейников. – М.: Экзамен, 2004 – 768 с

²¹ Матвеев Н. В. Экономическая безопасность предприятия : автореф. дис....канд. экон. наук : 08.00.05 [Текст] / Н. В. Матвеев. – Москва, 1999. – 23 с.

²² Беспалько А. А. Экономическая безопасность строительных предприятий : автореф. дис....канд. экон. наук : 08.00.05 [Текст] / А. А. Беспалько. – Москва, 2005. – 23 с.

²³ Богомолов В. А. Введение в специальность «Экономическая безопасность»: учебное пособие для вузов [Текст] / В.А. Богомолов. - М.: Изд-во ЮНИТИ-ДАНА, 2012. - 279 с.

²⁴ Королев М.И. Система экономической безопасности предприятия [Текст] / М.И. Королев. -М.: Изд-во Миска, 2011. - 347 с.

²⁵ Шаваев А. Г. Безопасность корпораций. Криминологические, уголовно-правовые и организационные проблемы [Текст] / А.Г. Шаваев - М.: Изд-во Концерн "Банковский Деловой Центр", 1998. - 240 с.

²⁶ Ярочкин В.И. Информационная безопасность: учебник [Текст] / В.И. Ярочкин.- М.: Фонд «Мир»; Акад. проект, 2003. - 639 с.

²⁷ Козаченко А.В., Пономарев В.П., Ляшенко А.Н. Экономическая безопасность предприятия: сущность и механизм обеспечения: монография [Текст] / А.В. Козаченко, В.П. Пономарев, А.Н. Ляшенко. - К.: Либра, 2003. - 280 с.

insoniy, texnik va texnologik salohiyati va tashkiliy tuzilmasi uning strategik maqsad va vazifalariga muvofiqligi tufayli raqobatdosh ustunliklarning mavjudligi uni ma'lum darajadagi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydi. Ammo afzalliklar va potentsiallarning mavjudligi, ulardan foydalanmasdan va amalga oshirmasdan turib, korxonaning iqtisodiy xavfsizligini kafolatlamaydi.


Korxonaning iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilishga asoslangan nisbatan yangi yondashuv iqtisodiy xavfsizlikni uning hayotiy manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish, ya'ni korxonaga, uning kadrlar va intellektual salohiyati, axborot, maxsus huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, axborot texnologiyalari va ijtimoiy xarakterdagi chora-tadbirlar tizimi taqdim etiladigan texnologiya, kapital va foyda. Bu yondashuvni U.T.Xaytmatov, O.X.Azamatov, R.R. Majidov, A.F. Hakimov²⁸, N. K. Muratova²⁹, I.A. Konopleva, I. A. Bogdanov³⁰ lar olg'a suradilar.

Nazariy asoslarni o'rganish va sarhisob qilish natijasida shu xulosaga kelish mumkinki, tadbirkorlik sub'yektlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda avvalo davlatning iqtisodiy xavfsizligi ya'ni birinchi navbatda mamlakat iqtisodiy ahvolining yomonlashishiga olib keladigan salbiy tashqi va ichki ta'sirlar ta'siridan himoyalashni ta'minlash kerak (1.1-rasm).

²⁸ Хайитматов У.Т., Азаматов О.Х., Мажидов Р.Р., Хакимов А.Ф. Обеспечение экономической безопасности предприятий в современном бизнесе [Текст] / У.Т. Хайитматов , О.Х. Азаматов , Р.Р. Мажидов. // Иктисодиёт ва инновацион технологиялар. 2012. № 4.

²⁹ Муратова Н. К. Экономическая безопасность предприятия как успешная составляющая современного бизнеса / Н.К. Муратова // Государственное управление. Электронный вестник. – 2012. - №32. – С. 1-6.

³⁰ Коноплева И. А. Управление безопасностью и безопасностью бизнеса: учеб. пособие для вузов [Текст] / И. А. Коноплева, И. А. Богданов. - М.: Изд-во ИНФРА-М., 2012. - 447 с.




1.1-rasm. Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tizimi³¹

Iqtisodiy xavfsizlik – bu xavfsizlikning bir turi hisoblanadi. Xavfsizlikning asosiy turlari: iqtisodiy, tashkiliy (makrodarajada – siyosiy), huquqiy, demografik (mikrodarajada – xodimlar), ekologik, axborot, texnologik.

Iqtisodiy xavfsizlikni yana bir eng asosiy turi bu – moliyaviy xavfsizlik bo'lib, u buxgalteriya hisobi xavfsizligi (hisob, audit, nazorat, statistika va boshqalar)ni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: himoya va foydalanish (1.2-rasm).

³¹Muallif ishlanmasi



1.2-rasm. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishlari³²

Xavf ko'p ma'noga ega:

a) bu masalan, ijtimoiy salbiy ta'sir ko'rsatishning ob'yektiv ravishda mavjud bo'lgan imkoniyati, buning natijasida unga har qanday zarar yetkazilishi, uning holatini yomonlashtiradigan, rivojlanishiga istalmagan dinamika yoki parametrlarni beradigan zarari;

b) zarar yetkazish ehtimoli yoki uni oldindan sezish;

d) bu mumkin bo'lgan yoki real hodisalar, jarayonlar, ular ma'lum bir sub'yektlarni (shaxs, ijtimoiy guruh, xalq, davlat) yoki odamlar uchun muhim bo'lgan ob'yektlar, tabiiy qadriyatlarni yo'q qilishi yoki ularga zarar yetkazishi mumkin; tanazzulga olib keladi yoki rivojlanish yo'lini yopadi.

Tahdidning asosiy mazmuni esa:

a) qo'rqitish, kimgadir muammo yoki zarar yetkazishni va'da qilish;

b) ochiq dushman kuchlarning maqsadli faoliyati natijasida yuzaga keladigan xavfning eng aniq va bevosita shakli;


d) ehtimoldan voqelikka o'tishga tayyorlik bosqichidagi xavf, keyingi xavfli hodisalar haqida so'z yoki ko'rgazmali harakat bilan ogohlantirish yoki har qanday nuqtai nazardan foydali mavqega ega bo'lish uchun qo'rquvdan foydalanishning asosiy maqsadi bilan chalg'itish.

“Xavf” va “Tahdid” tushunchalarini tenglashtirmaslik kerak. Ushbu toifalar bir-biriga bog'liq bo'lishiga qaramay, ular orasida sezilarli farqlar mavjud. Bunda

³²Muallif ishlanmasi

real va ideal, imkoniyat hamda voqelikni alohida farqlash zarur va bu iqtisodiy xavfsizlik mazmun mohiyatini chuqurroq anglash imkoniyatini beradi.

Tashqi va ichki tahdidlardan himoyalaniş har xil turdagi iqtisodiy jinoyatlardan (o'g'irlik, firibgarlik, qalbakilashtirish, sanoat josusligi va boshqalar) himoya qilishni o'z ichiga oladi. Konseptual va uslubiy yondashuv iqtisodiy xavfsizlikning kategorik va konseptual apparatining mantiqiy diagrammasini qurishga imkon beradi (1.3-rasm).



1.3-rasm. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning konseptual asosi³³

Ushbu rasmda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda namoyon bo'ladigan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning mantiqiy aloqasi keltirilgan. Tadbirkorlik faoliyatining asosiy turi sub'yekti sifatida kichik korxonaning iqtisodiy xavfsizligi

³³Muallif ishlanmasi

ushbu faoliyat turining samaradorligi bilan belgilanadi. Milliy qonunchilikka muvofiq asosiy faoliyat turi korxonada faoliyatining belgilovchi maqsadi bo'lgan va uning foydasining asosiy qismini ta'minlovchi mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq faoliyat hisoblanadi. Shuning uchun asosiy faoliyat turining xavfsizligi kichik biznes korxonasi manfaatlarining u bilan o'zaro aloqada bo'lgan ichki va tashqi sub'yektlar manfaatlariga muvofiqligi o'lchovi bo'lib xizmat qiladigan foyda miqdori bilan tavsiflanadi. Foyda bo'lmagan taqdirda, kichik korxonada manfaatlarining muvozanati haqida gapirish mumkin emas, bu uning iqtisodiy xavfsizlikda ekanligini anglatadi.

Iqtisodiy xavfsizlikning funksional tarkibiy qismlarini ta'minlashning uslubiy asoslarining hozirgi holati mukammal emas, ammo bilimlarning to'planishi, uslubiy jihatlar va iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholash usullari masalaning dolzarbligidan dalolat beradi.

Zamonaviy xorijiy va mahalliy ilmiy manbaalarni tahlil qilish turli mualliflarning iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va belgilariga yondashuvlarini tasniflash, ularni quyidagicha izohlash imkonini berdi:

- ehtiyojlarni qondirish jarayoni;
- davlat, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va jismoniy shaxslarning milliy manfaatlarini himoya qilish omili;
- tizim ob'yektining holati;
- barqaror rivojlanish sharti;
- tizim elementlarining xossalari;
- zararni oldini olish tizimi;
- xavfsizlik choralari tizimini aniqlash;
- mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va mustaqilligi omili;
- shartlar va omillar majmui;
- tizim elementlarining dinamik rivojlanishi.

Bundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki kichik biznes sub'yektlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda ob'yektning holati, zararni va uni oldini olish uslubiyoti, barqarorlikni ta'minlash elementlaridan iborat bo'lishi kerak.

Yana bir xulosa qilishimiz mumkinki, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning iqtisodiy xavfsizligini mohiyati uning ichki ishlab chiqarish va aloqaga bo‘lingan funksional tarkibiy qismlari (quyi tizimlar) orqali to‘liq ochib berish mumkin. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligining funksional tarkibiy qismlari deganda uning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari majmui tushunilishi kerak, ular mazmuni va maqsadi bo‘yicha bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Iqtisodiy xavfsizlikning ichki ishlab chiqarish tarkibiy qismlari korxonada faoliyatining asosiy sohalari bilan bog‘liq bo‘lsa, aloqa komponentlari korxonada iqtisodiy xavfsizligining alohida elementlari o‘rtasidagi tashqi va ichki aloqalarni ta’minlaydi.

Ushbu komponentlarning har biri o‘ziga xos blok (quyi tizim) bo‘lib, korxonaning iqtisodiy xavfsizligining tegishli darajasiga erishish uchun ularning har birini alohida ta’minlash kerak.

Tashkiliy va boshqaruv komponenti muhim ahamiyatga ega, chunki korxonani yaratishni tashkil etish uning faoliyatining barcha jarayonlaridan oldin bo‘ladi. Lekin korxonaning iqtisodiy xavfsizligining moliyaviy quyi tizimi (komponenti) korxonada faoliyati jarayonida eng muhim hisoblanadi, chunki biznesning bozor sharoitida moliya har qanday iqtisodiy tizim faoliyatining asosi hisoblanadi.

Moliyaviy tarkibiy qism korxonada faoliyatini tegishli darajadagi likvidlik, rentabellik, to‘lov qobiliyatini ta’minlashga yo‘naltirishdan iborat bo‘lib, naqd pul hisob-kitoblari va kreditlarning o‘z vaqtida to‘lanishini, ishlab chiqarish jarayonlarini samarali pul bilan ta’minlashni ta’minlaydi. Ushbu tarkibiy qismga davlatning beqaror valyuta va soliq siyosati, inflyatsiyaning o‘sishi, moliyaviy boshqaruvning noprofessionalligi tahdid solmoqda.

Kadrlar – intellektual komponent korxonaning intellektual salohiyatini rivojlantirish, xodimlarni samarali boshqarish bilan tavsiflanadi. Iqtisodiy xavfsizlikning tegishli darajasi ko‘p jihatdan xodimlarning tarkibiga, ularning aql-zakovati va kasbiy mahoratiga, xodimlarni rag‘batlantirish, tanlash va o‘qitish tizimiga bog‘liq. Ushbu komponent uchun asosiy tahdidlar xodimlarning yetarli

darajada yuqori malakasi, korxonaning intellektual salohiyatining zaif rivojlanishi, xodimlarni samarasiz boshqarish, ijtimoiy ta'minot va martaba istiqbollarning yo'qligi, yuqori malakali ishchilarni raqobatdosh korxonalarga o'tkazish, yetarli darajada himoyalanganligidir.

Ishlab chiqarish – texnologik komponent asosiy ishlab chiqarish fondlarini o'z vaqtida yangilash, ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or texnologiyalar va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish darajasi, ishlab chiqarish quvvatlari va materiallardan foydalanish samaradorligi, raqobatbardosh ishlab chiqarish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Korxonaning xavfsizligini ta'minlash (moddiy, moliyaviy, intellektual va boshqalar) doimiy nazorat qilib turish kerak bo'lgan jarayondir. Iqtisodiy xavfsizlik choralarini majmuasini tanlash va optimallashtirish "ishonchlilik / xarajat" nisbati bo'yicha amalga oshiriladi. Optimal xavfsizlik tizimini yaratish uchun korxonaning xavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqishi kerak, uning asosida ushbu tizimning modeli quriladi va uning uzoq muddatli ishlashi uchun tegishli mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligining ko'p qirrali konsepsiyasi: resurslardan foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish tizimi, iqtisodiy rivojlanish, faoliyat va manfaatlarining xavfsizligini muvofiqlashtirishdan iborat. Shunday qilib, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi darajasini ma'lum bir statik ko'rsatkich bilan baholash mumkin emas, chunki u kamida uchta komponentni o'z ichiga oladi:


- 1) korxonalarining iqtisodiy xavfsizligining mavjud darajasi (ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy faoliyatni resurslar bilan ta'minlash bo'yicha);
- 2) faoliyat samaradorligi;
- 3) korxonani yanada rivojlantirish imkoniyati.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi – bu korxonaning faoliyati natijalariga erishish va uning imkoniyatlarini shakllantirishning xavfsiz holatidir.

Kichik biznesga ixtisoslashgan korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mezonlari: korxonaning ishlab chiqarish faoliyatining barqarorligi va

uzluksizligi; korxonaning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi; korxonada resurslaridan foydalanish samaradorligi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda tahdidlarga qarshi turish, moslashish va doimiy rivojlanish qobiliyati quyidagilardan iborat.



1.4-rasm. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi darajalarining gradatsiyasini asoslash tizimi³⁴

Resurslardan samarali foydalanish va korxonaning uzluksiz rivojlanish qobiliyati mavjudligi bilan iqtisodiy xavfsizlikning yuqori darajasiga erishish mumkin. Iqtisodiy xavfsizlikning o'rtacha darajasi korxonaning moliyaviy-iqtisodiy barqarorlikka erishishi va moslashish qobiliyatini shakllantirish bilan tavsiflanadi. Korxonada ishlab chiqarish faoliyatining barqarorligi, uzluksizligi va faqat tahdidlarga qarshi turish qobiliyati aniqlanganda, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi darajasi past bo'ladi. Iqtisodiy xavfsizlik darajalarining gradatsiyasini belgilash korxonalariga vaziyatni ob'yektiv baholash va rivojlanishning strategik yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

³⁴Muallif ishlanmasi

1.2-§. Kichik ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari

Korxonani boshqarish ancha murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Uning doirasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash eng muhim vazifa hisoblanadi. Zamonaviy adabiyotlarda korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ko'plab ta'riflar berilgan. Har bir muallif o'zining eng to'g'ri variantini ilgari surishga harakat qiladi. Lekin korxonani yirik yoki kichik bo'lishidan qat'i nazar korxonaning iqtisodiy xavfsizligi – bu tahdidlarning oldini olish va xo'jalik yurituvchi sub'yektning barqarorligini ta'minlashda resurslardan eng samarali foydalanish, moliyaviy mablag'larni to'g'ri taqsimlashdan iborat deb aytish mumkin.

Korxonani xavfsizligini ta'minlash – bu sub'yektning manfaatlarini amalga oshirish va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun qulay ish sharoitlarini yaratishning uzluksiz jarayoni hisoblanadi. Kichik korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimini faoliyati turli tamoyillarga qat'i rioya qilishga asoslangan bo'lishi kerak. Tamoyillar deganda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda zarur bo'lgan ma'lum umumiy qoidalar tushuniladi.

Kichik biznesga ixtisoslashgan ishlab chiqarish korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tamoyillarini tizimlashtirishning eng umumiy yondashuvini ko'rib chiqamiz, ular quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1. Murakkablik tamoyili. Bu tashkilotning barcha tarkibiy bo'linmalarida va faoliyatining barcha bosqichlarida moliyaviy, moddiy, axborot va inson resurslarini himoya qilishning barcha vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

2. Profilaktika chora-tadbirlarining ustuvorligi tamoyili har tomonlama xavfsizlik bo'yicha maqsadlarni belgilash xavfsizlik tizimini rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida amalga oshirilishi kerak.

3. Rejalashtirish tamoyili. Bu tashkilotni xavfsizlik tizimining ishlashiga olib keladi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatni shakllantirish kompleks dasturda belgilangan yagona reja va xavfsizlikning alohida sohalari va bo'limlari bo'yicha aniq rejalar asosida amalga oshirilishi kerak.

4. Shaffoflik va maxfiylikni birlashtirish tamoyili. Muhim iqtisodiy xavfsizlik choralari tizimi korxonaning barcha xodimlariga ma'lum bo'lishi kerak. Bu korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash va samaraliroq oldini olish imkonini beradi.


5. Kompetensiya tamoyili. Ushbu tamoyil korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari bilan muammoning mohiyatini biladigan, vaziyatni o'z vaqtida baholay oladigan va to'g'ri qaror qabul qilishga qodir bo'lgan professional tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislar shug'ullanishini nazarda tutadi.

6. Harakatning adekvatligi tamoyili. Ushbu tamoyilning mohiyati shundan iboratki, agar tahdid kuchli xavf tug'dirmasa, uni yo'q qilish yoki oldini olish uchun ortiqcha kuch sarflashning hojati yo'q, shu bilan birga tahdid qiluvchi omillarni bartaraf etishga korxonaga ko'proq kuch sarflash kerak.

7. Himoya samaradorligi tamoyili. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun foydalaniladigan vositalar tashkilot uchun muayyan tahdidlardan himoya qilish nuqtai nazaridan samarali bo'lishi kerak.

8. Hodisalarni lokalizatsiya qilish tamoyili. Korxonaga tomonidan amalga oshirilayotgan himoya choralari tahdid manbai va ushbu tahdididan eng ko'p ta'sirlanishi mumkin bo'lgan korxonaga ishtirokchisi bilan aniq bog'langan bo'lishi kerak.

Korxonaga iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash jarayonida uning predmetini belgilashda: "Element korxonaga xavfsizligini qanday ta'minlaydi?" degan savolni berish kerak. Xavfsizlik ob'yekti quyidagi savolga javob berishi kerak: "Ushbu elementning ahamiyati nimada va nima uchun uni himoya qilish kerak?". Tahdid manbaasini aniqlash jarayonida savolga javob berish kerak: "Ushbu element tashkilotga qanday zarar yetkazishi mumkin?". Tahdid ob'yektini aniqlashda savol teskari yo'nalishga ega: "Bu elementga qanday tahdidlar ta'sir qilishi mumkin yoki allaqachon ta'sir qilmoqda?".



1.5-rasm. Kichik biznes sub'yektlarida iqtisodiy xavfsizlik tizimini ta'minlashning to'rt o'lchovli mexanizmi³⁵

Bunday to'rt tizimli mexanizm (1.5-rasm) kichik biznes sub'yektlarini tashqi va ichki omillarning ta'sirini hisobga olgan holda tahdidlar va ulardan himoya qilishda iqtisodiy xavfsizlik tizimini samaradorligini oshirishda ta'sir qiluvchi omilning har bir elementini tahlil qilishga imkon beradi. Jonli, jonsiz, moddiy va nomoddiy shakldagi ob'yektlar iqtisodiy xavfsizlikning elementi sifatida ishtirok etadi. Masalan, xodimlar, raqobatchilar, tashkilot rahbari, axborot, dasturiy ta'minot va boshqalar.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga tor funksional e'tibor zarur, bu muammoning aniq usullari va yechimlarini chuqurroq va batafsil o'rganishga yordam beradi. Shunga asoslanib, iqtisodiy xavfsizlik nafaqat ichki holat, balki tashqi muhitning ta'siri bilan ham bog'liq bo'lgan murakkab tushunchadir, degan xulosaga kelish mumkin. Sanoat korxonasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimi shablon bo'lishi mumkin emas, u har bir korxonaga uchun o'ziga xos bo'lishi kerak.

Korxonaga iqtisodiy xavfsizlikning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

³⁵Muallif ishlanmasi

- qonuniylik;
- fuqarolarning huquq va erkinliklari;
- markazlashtirilgan boshqaruv;
- kompetensiya;
- maxfiylik;
- tashqi va ichki xavfsizlik tahdidlariga rioya qilish;
- kuch va vositalardan kompleks foydalanish;
- xavfsizlikni ta'minlash uchun mustaqillik va javobgarlik;
- ilg'or moddiy-texnik jihozlar;
- hokimiyat va boshqaruv organlari bilan muvofiqlashtirish hamda o'zaro

hamkorlik.

Iqtisodiy xavfsizlik tizimining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

- tijorat sirlari va maxfiy axborotni himoya qilish;
- kompyuter xavfsizligi;
- ichki xavfsizlik;
- binolar va inshootlarning xavfsizligi;
- jismoniy xavfsizlik;
- texnik xavfsizlik;
- aloqa xavfsizligi;
- tovarlar va shaxslarni tashish xavfsizligi;
- yong'in xavfsizligi;
- ekologik xavfsizlik;
- radiyasiyaviy va kimyoviy xavfsizlik;
- ijtimoiy-psixologik;
- xodimlar o'rtasida profilaktika ishlari va ularni iqtisodiy xavfsizlik masalalari bo'yicha o'qitish.

Yengil sanoatga ixtisoslashgan korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning taklif etilayotgan tamoyillari va vositalaridan kelib chiqib, mavjud vositalarning nazariy asoslangan tamoyillarga muvofiqligini tahlil qilish mumkin.

Korxonalar qaysi tahdidlarni eng muhim deb aniqlashiga asoslanib, tegishli xavfsizlik vositalari tanlanadi. Bizning fikrimizcha, faqat bir yoki bir nechta tamoyillarni qamrab oluvchi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biz buni metodologik asosni ishlab chiqishda ko'rib chiqishni maqsad qilganmiz.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tizimining ob'yekti xo'jalik yurituvchi sub'yektning joriy va kelgusi davrlardagi barqaror iqtisodiy holatidir. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tizimining asosiy xususiyatlari ko'p jihatdan himoya ob'yektiga bog'liq. Himoya ob'yekti murakkab va ko'p qirrali bo'lganligi sababli, iqtisodiy xavfsizlikni samarali ta'minlash boshqaruvga kompleks yondashuvga asoslanishi kerak ³⁶.

Shuningdek, ba'zi tadqiqotchilar iqtisodiy xavfsizlik ob'yektlarini butun iqtisodiy tizim va uning turli tarkibiy qismlari sifatida tushunadilar: korxonalar salohiyati, korxonaning mulki va resurslari, korxonalar xodimlari, korxonalar faoliyatining turli sohalari va boshqalar. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini mansubligiga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin bo'lgan sub'yektlarni ta'minlaydi:

- korxonalar tuzilmasi tarkibiga kiruvchi ushbu faoliyatga jalb qilingan ichki xizmatlar. Ushbu guruhga yuridik bo'lim, moliya bo'limi, xavfsizlik yoki xavfsizlik xizmati, yong'in va qutqaruv guruhi hamda boshqalar kiradi. Ya'ni, bu uning iqtisodiy xavfsizligi haqida bevosita qayg'uradigan korxonaning butun xodimlari. Ta'kidlash joizki, korxonadagi xavfsizlik xizmati iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi;

- korxonalar tarkibiga kirmaydigan va uning rahbariyatiga hisobot bermaydigan tashqi tashkilotlar. Bu guruhga, birinchi navbatda, davlat organlari, shuningdek, tahlil markazlari, axborot xizmatlari va boshqalar kiradi.

Ko'pincha kichik korxonalar tashqi tashkilotlar xizmatlariga murojaat qilishadi, yirik kompaniyalar va korporatsiyalar esa yillar davomida shakllangan hamda rivojlangan o'zlarining iqtisodiy xavfsizlik xizmatiga ega. O'rta korxonalar, qoida tariqasida, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning birlashgan tizimidan

³⁶Шлендер П.Э. Безопасность жизнедеятельности. М.: Вузовский учебник, 2010. 304 с.

foydalanadilar. Iqtisodiy xavfsizlik ob'yektlariga sub'yektlarning ta'siri korxonada faoliyatining umumiy samaradorligiga erishish, tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash va ularning oldini olishni ta'minlaydigan mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.³⁷

Shunday qilib, ob'yektning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash loyihasi – bu yagona tashkiliy-texnik kompleks bo'lib, uni shakllantirish jarayonida ob'yekt xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasi yoki xavfsizlik siyosati ishlab chiqiladi. U ob'yektni himoya qilish bo'yicha harakatlar rejasini ishlab chiqishga qaratilgan majburiy chora-tadbirlar ro'yxatiga asoslanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, xavfsizlik siyosatining samaradorligi uni amalga oshirish uning barcha jihatlarini tushunishga qodir bo'lgan tashkilot xodimlari va uni amalga oshirishga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan menejrlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasi bo'lgandagina yuqori darajada bo'ladi. Xavfsizlik siyosatining samaradorligiga ta'sir qiluvchi bir xil darajada muhim omil – bu xodimlarning uning talablarini bajarishga tayyorligi, har kimga xavfsizlik rejimini saqlash bo'yicha o'z mas'uliyatini yetkazishdir. Xavfsizlik siyosatiga rioya qilish har bir muammo turi uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan kafolatlanishi kerak.

Albatta, xavfsizlik siyosatining barcha asosiy qoidalari tegishli ma'muriy hujjatlarda mustahkamlangan bo'lishi kerak, ularning tarkibi va mazmuni ob'yektning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Biroq, qoida tariqasida, hech qanday tashkilot tijorat siri, ma'lumotni himoya qilish, ma'mur, tarmoq xavfsizligi, avtomatlashtirilgan tizimlardagi ma'lumotlarga kirishni cheklovchi qoidalar, ishlov berish amalga oshiriladigan binolarga xodimlar va tashrif buyuruvchilarni kiritish qoidalarisiz qila olmaydi.

Biroq, sanab o'tilgan chora-tadbirlar bir qator tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshirmasdan turib, himoya tizimining ishlashini kerakli darajada saqlashga imkon bermaydi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimining sub'yektlari markaziy va eng murakkab element hisoblanadi, chunki ularning faoliyati xavfsizlik ob'yektining xususiyatlariga, xavflarni boshqarish sifatiga, mavjud resurslarga va boshqa

³⁷ Айрапетова А.Г., Иванова Ю.Н. Экономическая безопасность предприятия. СПб.: Изд. СПбГУЭФ, 2007

omillarga bog‘liq. Aksariyat tadqiqotchilar korxonaning iqtisodiy xavfsizlik tizimining sub‘yektlarini ichki va tashqi turlarga ajratadilar. Ichki sub‘yektlarga ko‘ra, korxonaga egalari va uning barcha xodimlari, tashqi bo‘g‘inlar – korxonaga sheriklari, uning institutsional muhiti va bozor infratuzilmasi sub‘yektlari va boshqalar.³⁸

Shunday qilib, M.I. Kopitko tadqiqot ishida korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini kompleks ta‘minlashning ichki va tashqi sub‘yektlari bo‘linishi berilgan bo‘lib, unga ko‘ra korxonaga iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda menejerlarni korxonani boshqarish samaradorligini oshirish hamda sug‘urtalash ishlarini amalga oshirishni taklif etgan³⁹.


Jahon bozor dinamikasi va zamonaviy korxonalarining raqobatbardoshligi omili sifatida yangi sharoitlarga moslashishning yuqori darajasi biznes muhiti va resurs salohiyatining ichki holatidagi o‘zgarishlarga ularning iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini doimiy ravishda modernizatsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Buning uchun korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimini strategik jihatdan ishlab chiqish talab etiladi, uning sifati barqaror funksional quyi tizimlarni shakllantirish orqali uning faoliyatiga xavf omillari ta‘sirini minimallashtirish imkoniyatiga bog‘liq. Shu sababli, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimining o‘ziga xos tarkibiy elementlarini o‘rganish, ular o‘rtasidagi munosabatlar dialektikasini aniqlash dolzarb masaladir.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimini strukturalashda ob‘yekt-sub‘yekt yondashuvidan foydalanish maqsadga muvofiqdir, umuman olganda, uning tuzilishi ob‘yektlar va sub‘yektlar to‘plami bo‘lib, ular o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlar boshqa tarkibiy elementlarga berilgan tizim – tamoyillar, funksiyalar, maqsad, boshqaruv vositalari va boshqalarga bog‘liq (1.6-rasm).

³⁸Система економічно ї безпеки підприємств зв’язку: монографія. / О. О. Сосновська. – Київ: «Центр учбово ї літератури», 2019. – с. 116

³⁹Копитко М.І. Комплексне забезпечення економічної безпеки підприємств (на матеріалах підприємств транспортного машинобудування): дисертація на здобуття наукового ступеня доктора економічних наук: 21.04.02/ Марта Іванівна Копитко. – Київ: Вищий навчальний заклад «Університет економіки і права «Крок», 2015. – 478 с.



1.6-rasm. Korxonaning iqtisodiy xavfsizlik tizimining tarkibiy tuzilmasi algoritmi⁴⁰

⁴⁰Muallif ishlanmasi

Rasmdan ko‘rinib turibdiki korxonaning iqtisodiy xavfsizlik tizimi metodik jihatdan korxonaga ta’sir etuvchi ob’yektiv va sub’yektiv omillar ta’siri doirasida funksional quyi tizimga ta’sir etish orqali korxonaning iqtisodiy-moliyaviy, axborot, xodimlar, innovatsiyalar hamda investitsiya tizimlariga ta’sir etish mumkinligi va uni metodik yondashuv orqali iqtisodiy xavfsizlik tizimini barqarorligini ta’minlashga erishish mumkin.

Xavfsizlik ob’yekti – iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan barcha omillar (moliyaviy-iqtisodiy faoliyat, aktivlar, kapital, majburiyatlar va boshqalar). Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun korxonada maxsus organlar – iqtisodiy xavfsizlik sub’yektlari faoliyat ko‘rsatishi kerak. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi sub’yektlari – bu iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bilan bevosita shug‘ullanadigan shaxslar, bo‘linmalar va xizmatlar majmuidir. Bular: korxonada rahbari, iqtisodiy xavfsizlik bo‘yicha tahlilchilar va xodimlar bo‘lishi mumkin. Korxonani boshqarishda ko‘pincha rahbar yoki menejer sifatida qatnashadigan korxonada egalari haqida unutmash kerak. Bizning fikrimizcha, korxonaning iqtisodiy xavfsizligini boshqarishning asosiy sub’yektlari korxonada rahbari, buxgalter, moliyaviy monitoring bo‘yicha mutaxassis va yuridik bo‘lim mutaxassislaridir.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini boshqarish usullari tizimi quyidagi asosiy texnika va usullardan shakllanadi: tahlil qilish, hisoblash, optimallashtirish usullari; balans usuli; texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar usuli; iqtisodiy-statistik va iqtisodiy-matematik usullar; xarajatlarni chegirma usullari; ekspert usullari (ekspert baholash usullari); qiymatni oshirish usullari; aktivlarni amortizatsiya qilish usullari va boshqalar.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi siyosati deganda biznes maqsadlariga erishish uchun qulay sharoit yaratadigan iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi qarashlar, qarorlar va harakatlar tizimi tushunilishi kerak. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini boshqarish mexanizmi uning himoyasini ta’minlash bo‘yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishning asosiy elementlari (xavflar, tahdidlar, funksiyalar, vositalar, usullar, ob’yektlar, sub’yektlar va boshqalar) majmuidir.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadi – faoliyatning maksimal barqarorligiga erishish, shuningdek, ob'yektiv va sub'yektiv omillardan (salbiy harakatlar, xavf omillari) qat'i nazar, biznes maqsadini amalga oshirish uchun o'sish istiqbollarini yaratish. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi barqaror ishlash va dinamik ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy rivojlanish uchun ulardan eng samarali foydalanishni kafolatlaydigan barcha turdagi resurslar va tadbirkorlik imkoniyatlaridan foydalanish orqali erishiladigan barqaror rivojlanishni (ya'ni, muvozanatli va uzluksiz) o'z ichiga oladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimi bir qator chora-tadbirlardan iborat:

- moliyaviy ta'minot – korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati, to'lov qobiliyati va boshqa “pul masalalari”;

- axborot xavfsizligi – o'z ma'lumotlarini himoya qilish. Zarur hollarda axborot-tahliliy ish, razvedka;

- texnik va texnologik xavfsizlik – korxonaning bozorda raqobatbardoshligini mustahkamlovchi texnik baza va jihozlar, texnologiyalar va biznes jarayonlarini shakllantirish;

- huquqiy ta'minot – korxonaning faoliyatini huquqiy ta'minlash: davlat, hamkorlar, raqobatchilar, yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar;

- ijtimoiy ta'minot – korxonaning manfaatlarini rivojlantirish va amalga oshirishga, shuningdek xodimlarning moddiy va nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan;

- xodimlar xavfsizligi – bular ish beruvchi o'z aktivlarini, resurslarini ishonib topshirgan va yuqorida ko'rsatilgan barcha choralarni bajarish uchun vakolat bergan odamlardir.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tahdidlar va inqiroz hodisalarini bartaraf etish bilan chambarchas bog'liq. Korxonada iqtisodiy inqirozga olib kelishi mumkin bo'lgan omillar korxonaning faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tashqi omillarga va korxonaning ishini tashkil etishga bog'liq bo'lgan ichki omillarga bo'linadi.

Inqirozning paydo bo'lishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan tashqi omillar ko'proq strategik xususiyatga ega. Ularga inqirozning oldini olish uchun o'z vaqtida ogohlantirish va harakat qilish tizimi mukammal ishlamagan taqdirda korxonaning iqtisodiy inqiroziga olib keladi. Bu esa o'z navbatida korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir qiladi. Ichki omillar, qoida tariqasida, o'zaro bog'liqdir. Ular korxonaning faoliyatidagi yo'qotishlarga, to'lovga qobiliyatini pasaytirishga, bozor bilan ishlashning qoniqarsiz tashkil etilishiga, raqobatbardoshlikning yo'qolishiga olib keladi.

Umuman olganda korxonada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tamoyillarining asosiy maqsadida iqtisodiy xavfsizlik tizimini shakllantirishga ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan omillarni metodik jihatdan aniqlash orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tizimini takomillashtirish mumkin. Bunda yuqorida keltirilgan 1.6 – rasmdan kelib chiqqan holda tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1.3-§. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyat yo'nalishlarini tahlil qilish xususiyatlari

Korxonada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammosi bo'yicha bir qator ilmiy nazariyalar ilgari surilgan, ular ko'p holatlarda bir-biriga to'g'ri kelmaydi, balki bir tomondan bir-biriga zid bo'lsa, ikkinchi tomondan, bir-birini to'ldiradi. Muhim farqlarni aniqlash uchun birinchi navbatda ushbu muammoni hal qilishda mavjud yondashuvlarni umumlashtirish va tasniflash kerak.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi bilan bog'liq olib borilgan tadqiqotlar prinsipiga ko'ra tasniflanishi mumkin. Buni bir nechta guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashni mulkni muhofaza qilishning ustuvor yo'nalishi deb biladi, uni himoya qilishga e'tibor beradi.

Mualliflarning fikriga ko'ra, ikkinchi guruhda xavfsizlik faoliyati asosiy jihatlarga qaratilgan. Masalan, kriminologik, psixologik, huquqiy, axborot,

boshqaruv. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning bunday muammolarini hal qilish uchun risklarni boshqarish, audit, buxgalteriya hisobi, nazorat, xodimlarni boshqarish, marketing va bosh vositalardan foydalanish taklif etiladi. Har ikkala guruhda asosiy qo'yilgan maqsad bu mulkni asrab-avaylashga qaratilganligidadir.

Shu nuqtai nazardan iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha tadqiqotlarning asosiy qismi korxonalarni boshqarishda qonun hujjatlari buzilishini aniqlash va oldini olishga bag'ishlangan. Shu bilan birga, iqtisodiy xavfsizlikni alohida tuzilmaviy bo'linma – xavfsizlik xizmati ta'minlashi mumkin, deb hisoblashadi. Shuning uchun asosiy e'tibor xavfsizlik xizmatlarining tuzilmalari va funksiyalarini, xavfsizlik tizimlarini, shuningdek, shu tarzda shakllantirilgan muammoga kompleks yondashuvlarni tavsiflashga qaratilgan. Ushbu yondashuv amaliy jihatdan foydalidir, ayniqsa u amalga oshirilishi mumkin bo'lgan uslubiy tavsiyalarga tegishli.

Odatda, xavfsizlik faoliyatining bir yoki bir nechta o'ziga xos jihatlarini ta'kidlab, murakkab va amaliy jihatdan qimmatli tadqiqot qismlari taklif etiladi. Bu guruhga xavfsizlik mavzusi to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilinmagan, ammo shunga qaramay xavfsizlik bilan bevosita bog'liq bo'lgan asarlar ham bo'lishi mumkin.

Keyingi yo'nalish korxonada faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq. Bunda korxonada boshqaruvi asosiy yo'nalish sifatida tanlanadi. Mezon sifatida maqsadlarga erishish darajasi qo'llaniladi. Belgilangan maqsadlarga erishilmasa, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi ta'minlanmagan deb hisoblanadi.⁴¹

Bunday holda, korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun yetarlicha keng maqsadlar qo'yiladi.

- 1) korxonaning normal ish faoliyatini ta'minlash, korxonada va uning xodimlarini ijtimoiy himoya qilish;
- 2) korxonaning qonuniy huquqlarini himoya qilish;
- 3) korxonada mulkini saqlash, undan oqilona foydalanish;

⁴¹Запорожцева Л. А. Стратегическая экономическая безопасность в системе жизненного цикла предприятия. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Тамбов, 2015. 399 с.

4) ishlab chiqarilayotgan tovarlarning raqobatbardoshligini oshirish, ularni sotish uchun qulay sharoitlar yaratish;

5) korxonada foydasining o'sishi;

6) korxonaning ichki va tashqi barqarorligiga erishish;

7) iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy faoliyatni axborot bilan ta'minlash;

8) tijorat sirlarini saqlash.

Yuqoridagi barcha maqsadlar korxonaning iqtisodiy farovonligiga tashqi va ichki tahdidlarni kamaytirish orqali uning asosiy faoliyatini ta'minlashga qaratilgan. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi holati turli nuqtai nazarlardan baholanadi:

- raqobatbardoshlik;
- strategik barqarorlik;
- moliyaviy barqarorlik.

Bugungi kunda tashkilotning iqtisodiy xavfsizligi konsepsiyasi, V.I. Barilenkoning ta'kidlashicha: "Iqtisodiy xavfsizlik – bu o'z maqsadlariga muvofiq o'zgarish miqyosida, doimiy miqdoriy va sifat xususiyatlariga ega bo'lgan qayta ishlab chiqarish qobiliyatiga ega bo'lgan iqtisodiy tizimning holati"⁴² deb atagan.

Olimlarning fikriga asoslanib, bitta yaxlit xulosaga kelish mumkinki, tashkilotda iqtisodiy xavfsizlik xavfsizlikning murakkab elementi shaklida taqdim etiladi. Hozirgi rivojlanish va faoliyat bunga bog'liq bo'lib, uning investitsion jozibadorligidagi rolga ham ta'sir qiladi. Biznes turi bo'yicha hech qanday cheklovlar yo'q. "Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun ichki yoki tashqi tahdidlarni zudlik bilan aniqlash va oldini olish zarurligini hisobga olish kerak. Kelajakda bu korxonada iqtisodiyoti, butun tashkilotning holati uchun ma'lum salbiy yoki ijobiy oqibatlarga olib keladi"⁴³.


⁴² Бариленко В.И. Экономический анализ как основа антикризисного регулирования хозяйственной деятельности предприятия / Саратов. гос. социал.-экон. ун-т; под общ. ред. В. И. Бариленко. – Саратов: ИЦ «Наука», 2010. – 332 с.

⁴³ Аванскова Я.В. Понятие и особенности обеспечения экономической безопасности на предприятии / Я.В. Аванскова // Экономическая безопасность: проблемы, перспективы, тенденции развития: материалы VI Международной научно-практической конференции (19 февраля 2020 г.) / Пермский государственный национальный исследовательский университет. – Пермь, 2020. – С. 9–14 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.psu.ru/files/docs/science/books/sborniki/economicheskayabezopasnost-2019.pdf>

Shuni hisobga olish kerakki, iqtisodiy xavfsizlik savdo yoki ishlab chiqarish sohasidagi bir nechta asosiy vazifalarni o'z ichiga oladi:

- 1) korxonaning o'zi va har bir xodimning barcha asosiy huquqlari qonun hujjatlari asosida himoya qilinadi;
- 2) barcha ma'lumotlar batafsil ko'rib chiqiladi, ular to'planadi va tahlil qilinadi, so'ngra prognoz tuziladi;
- 3) har bir korxonaning tashqi tahdidlarga moyil bo'lishi mumkin bo'lgan zaif tomonlarini kuchaytirish bo'yicha o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rish zarur;
- 4) xodimlar tomonidan har qanday salbiy faoliyatning, shu jumladan noqonuniy faoliyatning oldini olish zarur;
- 5) kompaniya ham moddiy, ham tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlaydi;
- 6) jamiyat va asosiy sheriklar kompaniya haqida ijobiy tasavvurga ega bo'lishi kerak, bu esa asosiy maqsadlarga erishishga yordam beradi;
- 7) yetkazilgan zarar o'z vaqtida qoplanishi kerak.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi bo'yicha turli ilmiy adabiyot mualliflarining nuqtai nazarlarini ko'rib chiqildi, uning mohiyatini aniqlab, uning tasnifini ko'rib chiqish lozimdir. Iqtisodiy xavfsizlik formatida funksional komponent asosiy yo'nalishlar to'plamidir. Ular qaysi sohaga mo'ljallanganligiga, shuningdek, qanday resurslardan foydalanilishiga qarab guruhlarga bo'linadi (1.7-rasm).



1.7-rasm. Iqtisodiy xavfsizlikning funksional komponentlari⁴⁴

⁴⁴Muallif ishlanmasi

Iqtisodiy himoyani ta'minlash va xavfsizlikning yuqori darajasiga erishish uchun har bir funksional komponent muhimligini tushunish ahamiyatlidir. Shu bilan birga, har bir alohida sohadagi tarkib muhim ahamiyatga ega. Shuni yodda tutish kerakki, iqtisodiy xavfsizlikda moliyaviy qismga alohida e'tibor berilishi kerak. Bu korxonani tashqi va ichki ta'sirlardan himoya qilishni anglatadi. Xususan, bu turli tahdidlarning oqibatlarini yengish yoki zarur moddiy zaxiralar mavjudligi sababli ularni o'z vaqtida bartaraf etish imkoniyatidir, salbiy omillar esa minimal bo'ladi.

Korxonaning iqtisodiy ta'minotining moliyaviy tarkibiy qismini diagnostika qilish korxonaning balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotga muvofiq amalga oshiriladi. Korxonaning moliyaviy xavfsizligining holati guruhlariga birlashtirilgan ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:


- likvidlik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari;
- moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari;
- rentabellik ko'rsatkichlari.

Kichik biznesga ixtisoslashgan korxonalar faoliyatining barcha sohalarini va jihatlarini hisobga olish uchun korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda tizimli yondashuvdan foydalanishni ta'kidlash kerak. Ammo biz darhol tan olishimiz kerakki, faoliyatning barcha sohalarida bir vaqtning o'zida xavfsizlikni ta'minlash iqtisodiy jihatdan imkonsiz ko'rinadi. Garchi xavfsizlikning ba'zi jihatlarini rahbarlar va xodimlarning ish tavsiflariga rioya qilish uchun mukofotlash va qoidabuzarlik sodir etilgan taqdirda jazolash to'g'risidagi qoidalarni o'z ichiga olgan holda kiritish alohida xarajatlarni talab qilmaydi va korxonadagi har qanday xodim kasbiy faoliyatining bir qismi bo'lishi kerak.

Binobarin, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha vakolat va majburiyatlarni taqsimlash korxonalar xodimlarining vakolatlari doirasida bo'lishi kerak. Umuman korxonaning iqtisodiy xavfsizlik tizimini tartibga solishda ma'lum bir mantiqiy ketma-ketlikka rioya qilish kerak (1.7-rasm).

Yuqorida keltirilgan turli nuqtai nazarlarni umumlashtirish quyidagi xulosalarga olib keladi. Aksariyat hollarda korxonaning iqtisodiy xavfsizligini

ta'minlash jarayoni, masalan, aniqlangan, bashorat qilingan yoki taxminiy tahdidlardan himoya sifatida taqdim etiladi. Tabiiyki, bu yondashuv juda tabiiy va mantiqiy ko'rinadi, chunki u tahdidlardan himoya sifatida korxonaning iqtisodiy xavfsizligi ta'rifiga mos keladi.



Muayyan harakatlar zarur shart-sharoitlarni yaratadi: muayyan tahdidni aniqlash – biz himoya qilish usulini tanlaymiz va amalga oshiramiz. Ammo bu nuqtai nazar ba'zi shubhalarni keltirib chiqaradi, chunki:

- tahdid emas, balki xavfsizlik tushunchasi birlamchi bo'lishi kerak, chunki korxonada faoliyatining o'zi unga tahdidlarni keltirib chiqarishi mumkin;

- korxonada o'z faoliyatida bevosita yoki bilvosita duch keladigan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar manfaatlarining qarama-qarshiligi tufayli korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid doimo mavjud bo'ladi;

- muayyan tahdidlarga nisbatan xavfsizlik tizimini yaratish, bir tomondan, tashqi muhitdagi doimiy o'zgaruvchan vaziyat tufayli ishonchli himoyani ta'minlamaydi, ikkinchi tomondan, tahdidning paydo bo'lishi va amalga oshirilishi doimo mavjud noaniqlik tufayli yuzaga keladi.

Bundan tashqari, xavfsizlik tizimi paydo bo'ladigan tahdidlarning salbiy ta'sirini oldini olishi yoki minimallashtirishi kerak. Bu ularni korxonaning rejalashtirilgan natijalariga ta'sirini minimallashtirishga to'g'ri keladi. Shunday qilib, korxonada faoliyatini rejalashtirishda tahdidlarning paydo bo'lishini oldindan bilish va shunga mos ravishda adekvat iqtisodiy qarorlar qabul qilish kerak. Bundan tashqari, korxonada doimo quvvat zaxiralari, materiallarning xavfsizlik zaxiralari, energiya resurslari va moliyaviy zaxiralar bo'lishi kerak.

Iqtisodiy xavfsizlikni optimal baholash aniqlovchi omillarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy sohada himoyani ta'minlovchi omillar korxonada xavfsizlikning asosiy xususiyatlariga ta'sir qiluvchi atrof-muhit sharoitlarini o'z ichiga olgan yagona tizimdir. Iqtisodiy xavfsizlikning shakllanishiga turli sabablar ta'sir qiladi. Masalan, raqobatchilarning tahdidli xatti-harakatlari yoki sheriklar va mijozlar shartnomalar bo'yicha to'lov majburiyatlarini bajarmaslik yoki tovarlarni o'z vaqtida yetkazib bermaslik natijasida korxonada zarar ko'radi va bu iqtisodiy xavfni keltirib chiqaradi. Bu birgina moliyaviy xavfsizlik omili hisoblanadi. Tahlil jarayonida boshqa omillarning ta'sirini ham ko'rib chiqamiz.

Bundan tashqari, iqtisodiyotda turli inqiroz hodisalari yuzaga kelishi mumkin, shuningdek, bozor sharoitlarining o'zgarishi, tabiiy ofatlar va baxtsiz hodisalar ro'y berishi yoki mamlakatda noqulay iqtisodiy siyosat olib borilgan taqdirda, bularning barchasi iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir qiladi.

Iqtisodiy sohadagi korxonada xavfsizligi ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi bir qator o'ziga xos omillar quyidagilardir:

- korxonaga uchun qarzдор bo'lgan xaridorlar va mijozlar bilan munosabatlar;
- kreditorlarga taqdim etiladigan asosiy to'lov shartlari;
- xodimlarni rag'batlantirishning samarali tizimining mavjudligi.

Korxonaning ichki xavfsizlik omillarini to'g'ri baholash orqali boshqarish samaradorligini oshirish mumkin. Vaziyatni muntazam ravishda kuzatib borish, xavfni kamaytirish usullarini tanlash va xavfsizlik darajasiga ta'sir qiluvchi turli masalalarga tezkor ta'sir ko'rsatish kerak.

Ichki omillar ta'sirini yaxshilash orqali tashqi omillarning salbiy ta'sirini kamaytirish mumkin. Tashqi omillar quyidagi guruhlariga bo'linadi: makroiqtisodiy, bozor va boshqalar. Korxonaga xavfsizligiga ta'sir qiluvchi makroiqtisodiy omillarni batafsil tahlil qilish kerak. Bularga mamlakat iqtisodiyoti, huquqiy barqarorlik, inflyatsiya, xarid qobiliyati, davlat siyosati kiradi.

Bozor omillariga iste'molchi va ishlab chiqarish talabi kiradi. Bundan tashqari, siz xom ashyo va tayyor mahsulotlar uchun narxlarni tahlil qilishingiz, shuningdek, ma'lum bir sanoat va ma'lum bir mintaqadagi raqobat darajasini kuzatishingiz kerak. Bundan tashqari, siz raqobatchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilishingiz kerak.

Boshqa omillar qatoriga umuman mamlakatdagi va xususan, ushbu sohadagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, shuningdek, tabiiy omillar va iqlim xususiyatlari, jinoyatchilik darajasi va mamlakatdagi demografik vaziyat kiradi.

Vaziyatni chuqur tahlil qilgandan so'ng, iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi barcha omillarning optimal muvozanatidan, yuzaga keladigan tahdidlarga boshqaruvning o'z vaqtida javob berishidan va keyinchalik salbiy oqibatlarni samarali bartaraf etishdan kelib chiqadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, birinchi navbatda, iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni emas, balki korxonaga faoliyatini xavfsiz tashkil etishni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Demak:

- iqtisodiy xavfsizlik deganda korxonaning holati (statik yondashuv nuqtai nazaridan) yoki faoliyat ko'rsatish jarayoni (dinamik yondashuv nuqtai nazaridan) tushuniladi va tahdidga nisbatan birlamchi hisoblanadi;

- rejalashtirilgan faoliyat natijalariga ishonchli erishishni hisobga olgan holda korxonaning arxitekturasi va ishlash mexanizmi yaratilishi, ya'ni xavfsizlik ham rejalashtirilgan bo'lishi kerak;

- arxitektura va ish mexanizmi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ta'minlashi kerak. Masalan, mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi choralari, barcha lavozim tavsiflariga xodimlar va rahbariyat doimiy ravishda foydalanishi kerak bo'lgan tegishli qoidalarni kiritishgacha. Korxonaning barcha faoliyati korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning yagona majmui sifatida ko'rib chiqilishi kerak;

- tahdidlarning ko'p turlari doimiy mavjudligi sababli, ulardan himoya qilish usullari korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga oldindan kiritilishi kerak, buning doirasida tahdidlarning paydo bo'lishini bashorat qilish va ularni zararsizlantirishni rejalashtirish; tezkor profilaktika choralari bilan;

- korxonaning faoliyatining o'ziga xosligi va uning tashqi muhitidagi mavjud risklarni hisobga olgan holda, faoliyatning individual jihatlari strategiya va taktika nuqtai nazaridan aniqlanishi kerak. Xulosa qilish uchun biz tahlil natijalarini tahdidlar va xavfsizlikning ustuvorligi nuqtai nazaridan taqdim etamiz (1.1-jadval).

1.1-jadval

Korxonaning xavfsizligiga ikkita yondashuvni solishtirish ⁴⁵

Variantlar	Birinchi yondashuv	Ikkinchi yondashuv
Birlamchi tushuncha	Tahdid	Xavfsizlik
Xavfsizlik tushunchasining mohiyati	Tahdidlarga qarshi xavfsizlik	Oddiy ishlash qobiliyati
Tahdid tushunchasining mohiyati	Zarar, xavf, ziddiyat	Maqsadlarga erisha olmaslik ehtimolining paydo bo'lishi yoki ortishi (normal faoliyatni buzish orqali)
Xavfsizlik tizimi vazifasi	Tahdiddan himoya qilish	Oddiy ishlashini ta'minlash
Xavfsizlikning korxonaning maqsadlariga erishish bilan bog'liqligi	Zarur shart	Yetarli holat
Xavfsizlik mezonini ⁴⁵ Muallif ishlanmasi	Korxonaning elementi xavfsizligi	Korxonaning tomonidan maqsadga erishish

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyat yo'nalishlarini tahlil qilish muhim va ko'p qirrali nazariy masaladir. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning maqsadi boshqaruv funksiyalaridan biri sifatida rejalashtirilgan faoliyat natijalarini ishonchli amalga oshirishdir.

Ikkinchi yondashuv afzalroqdir. Bundan tashqari, u yoki bu darajada, u ko'pchilik ishlaydigan korxonalar tomonidan amalda qo'llaniladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini aniqlash operatsion natijalarning ishonchliligi va prognoz qilinishini ta'minlaydigan iqtisodiy tamoyillarga asoslanishi kerak. Asosiy e'tibor tahdidlarga qarshi kurashish jarayoniga emas, balki korxonaning normal ishlash rejimini ta'minlash orqali rejalashtirilgan maqsadlarga erishishga qaratilishi kerak. Bu vazifani korxonaning alohida xizmatlari yoki bo'linmalari emas, balki butun korxonada hal qiladi.

Umuman olganda korxonaning iqtisodiy xavfsiz tizimi keng ma'noli tushuncha bo'lib ular bir emas balki bir nechta omillar va maqsadlarga qaratilganligidadir. Tadqiqotchilardan X.F. O'ktamov o'zining ilmiy tadqiqotida quyidagi xulosalarga kelganligini ko'rish mumkin⁴⁶:

- korxonada hududini qo'riqlash tizimini mukammallashtirish va ularni zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash;
- korxonada mulkini (asosiy vositalar, tovar zaxiralari, xom ashyo va materiallar, yarim fabrikatlar, tayyor mahsulotlar kabilar) asrash tizimini yaratish va uni muttasil takomillashtirib borish;
- korxonalar mulkini tashish jarayonida xavfsizlikni ta'minlash masalasini zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda takomillashtirish;
- korxonalarining axborot va ilmiy-texnik xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish;
- korxonada rahbariyati va mulk egalarining xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq tadbirlarni ishlab chiqish va takomillashtirish;

⁴⁶ X.F. Ўктамов. Саноат корхоналарининг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг илмий-назарий асослари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали//3/2023, май-июн (№ 00065)/ Б. 275-276

- korxonada sodir bo‘ladigan o‘g‘irlik va qo‘poruvchilik bilan bog‘liq hodisalarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga tezlik bilan yetkazish tizimini takomillashtirish;
- korxonaga kirish-chiqishning optimal rejimini joriy qilish;
- raqobat kurashi bilan bog‘liq xavfsizlikni ta‘minlashni takomillashtirish;
- korxonaning iqtisodiy xavfsizligini baholash va tahlil qilish tizimini, uslubiyotini ishlab chiqish va ularning tezkorligini ta‘minlashni takomillashtirish kabilar.

Korxonada iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash bu uzluksiz jarayondir va bunda vujudga keladigan zararlarni hamda tahdidlarni oldini olish korxonaga uchun doimiy vazifadir. Zarar, xavf-xatar, tahdidlarni oldini olish va korxonada iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash strategiyasidan iborat bo‘lishi talab etiladi.

Rivojlangan davlatlarning yirik kompaniya, konsorsiumga aylangan korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha shtablar faoliyat olib borishini taxlil va tadqiqot jarayoni davomida o‘rgandik.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimi uning ichki tahdidlari ya‘ni, ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish salohiyati hamda kadrlar faol va nafaol iqtisodiy tahdidlardan, masalan, davlatning samarasiz ilmiy-sanoat siyosatidan yoki tashqi muhitda yuzaga kelgan tahdidlardan himoyalanganligi tushuniladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash muammosi, hozirgi vaqtda dolzarb masaladir, chunki tashkilotning xavfsizligi bevosita xo‘jalik yurituvchi sub‘yektning faoliyati samaradorligi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, bozorda raqobatning kuchaygani, tovar iste‘molchisini topish, bozor muhitiga moslashish, talab va taklif qoidalariga amal qilishda korxonalar ma‘lum choralar ko‘rishga majbur.

Korxonaga risklarini tahlil qilish nafaqat katta moddiy yo‘qotishlarni, balki tuzatib bo‘lmaydigan zararni va hatto bankrotlikdan ham qochish imkonini beradi. Iqtisodiy xavfsizlik biznes faoliyatining ajralmas elementi bo‘lib, korxonaning butun hayoti davomida tadbirkorlik faoliyatiga xos bo‘lgan tahdidlarni

boshqarishning murakkab tizimidir. Bu raqobat va iqtisodiy tavakkalchilik sharoitida biznes maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

1-bob bo'yicha yakuniy xulosa

Iqtisodiy xavfsizlik bu iqtisodiy kategoriya bo'lib u moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashdan kelib chiqadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash butun xo'jalik yurituvchi sub'yektning xavf-xatarlarini salbiy ta'sirini oldini olishga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik davlat milliy xavfsizligini ta'min etuvchi asosiy bo'g'inlaridan biri, mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini kafolatli ta'minlash yo'llari, vositalari va usullariga asoslanuvchi qarashlar yig'indisidan iborat bo'lishi kerak.

Xo'jalik yurituvchi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishlari asosan tashqi va ichki ta'sir etuvchi omillar va tahdidlardan iborat bo'ladi. Biznes yurituvchi sub'yektlarda "Xavf" va "Tahdid" tushunchalari mavjud hisoblanadi. Ushbu toifalar bir-biriga bog'liq bo'lishiga qaramay, ular orasida sezilarli farqlar bor. Bunda real va ideal, imkoniyat hamda voqelikni alohida farqlash zarur va bu iqtisodiy xavfsizlik mazmun mohiyatini chuqurroq anglash imkoniyatini beradi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning konseptual qoidasi asosan ikkita xavf va tahdid omillari hamda ularni biznes sub'yektlariga ta'sir etuvchi bir nechta omillarini o'z ichiga oladi. Bu qoidaga amal qilish esa xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash samaradorligini oshirishga hizmat qiladi.

Iqtisodiy xavfsizlikning funksional tarkibiy qismlarini ta'minlashning uslubiy asoslari yetarli darajada tadqiq etilmagan deb aytish mumkin. Uslubiy jihatlar qancha murakkab bo'lsa, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholash adekvatligini namoyon eta oladi.

Kichik biznes sub'yektlarida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash moddiy, moliyaviy, intellektual va boshqalar doimiy nazorat qilib turish lozim bo'lgan jarayondir. Optimal xavfsizlik tizimini yaratish uchun korxonada xavfsizlik

konsepsiyasini ishlab chiqishi u asosida iqtisodiy xavfsizlik tizimining modeli tashkil etilishi kerak.

Kichik biznes sub'yektlarining iqtisodiy xavfsizlik darajasini ma'lum bir ko'rsatkich bilan baholash mumkin emas, chunki u kamida uchta komponentni o'z ichiga olishi kerak: iqtisodiy xavfsizligining mavjud darajasi; faoliyat samaradorligi; xo'jalikni rivojlantirish imkoniyati.

Kichik biznesga ixtisoslashgan korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mezonlari: korxonada ishlab chiqarish faoliyatining barqarorligi va uzluksizligi; korxonaning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi; korxonada resurslaridan foydalanish samaradorligidan iborat bo'lishi kerak.

Korxonada xavfsizligini ta'minlash – bu sub'yektning manfaatlarini amalga oshirish va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun qulay ish sharoitlarini yaratishning uzluksiz jarayoni hisoblanishi kerak. Bu o'z navbatida iqtisodiy xavfsizlikni samarali ta'minlash imkoniyatini beradi.

Korxonada iqtisodiy xavfsizlikning asosiy funksiyalari: korxonada faoliyatini nazorat qilish; tahdidlarni prognozlash, aniqlash va oldini olish; korxonada faoliyati va uning xodimlarini himoya qilishni ta'minlash; farovon raqobat muhitini yaratish; aniqlangan zararni qoplash va risklardan qochish. Kichik biznes sub'yektlarining iqtisodiy xavfsizlik tizimi – bu tashkilot manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishni sifatli amalga oshirishga qaratilgan tashkiliy, boshqaruv, rejim, texnik, profilaktika va targ'ibot tadbirlari majmuidan iborat bo'ladi.

